

Toshkent viloyatida investisiya va eksport ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumot

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar.

2020 yil uchun viloyatda **56** ta loyiha doirasida **309,2** mln. doll., shundan **270,5** mln. doll. to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni o'zlashtirish belgilangan.

Yil yakuni bilan belgilangan reja **322,5** mln doll. yoki **119** foizga bajarildi.

2021 yil uchun umumiy qiymati **1 095,5** mln. doll. bo'lgan **107** ta loyiha doirasida **371,8** mln doll. 2020 yilga nisbatan **114** foiz o'sish sur'ati bilan investisiyalarni o'zlashtirishni reja qilib olganmiz.

O'tgan yilda **22** ta hududda **56** ta xorijiy investisiyalar ishtirokidagi loyihalar amalga oshirilgan bo'lsa, 2021 yilda barcha hududlarda teng ravishda **107** ta to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar ishtirokidagi loyihalar amalga oshirilishi belgilangan.

Shundan, yanvar' oyi uchun **10,2** mln. dollar reja prognozi belgilangan bo'lib, **12,9** mln. dollar investisiyalar o'zlashtirildi yoki **126** foizga bajarildi.

Yanvar'-fevral' oylari uchun **27,6** mln. dollar xorijiy investisiyalar o'zlashtirilishi belgilangan bo'lib, **35,9** mln.dollarga yoki **130** foizga bajarildi.

1-chorak yakuni bilan belgilangan **48,5** mln. dollar reja prognozi **63,1** mln.dollarga yoki **130** foizga bajarilishi kutilmoqda.

Viloyatga jalb etilgan jami investisiyalarning **40** foizini Xitoy, **14** foizi Koreya, **9** foizini Rossiya **8** foizini Turkiya, **6** foiz Angliya, va **23** foizini boshqa davlatlar investorlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

To'g'ridan-to'g'ri investisiyalarni jalb etish bo'yicha 2019 yilda **36** ta, 2020 yilda **43** ta davlatlar bilan hamkorlikda loyihalar amalga oshirilgan bo'lsa, 2021 yilda **52** ta, 2022 yilda **57** ta, 2023 yilda **66** ta davlatlar kompaniyalari ishtirokida yangi investisiya loyihalari amalga oshirish bo'yicha muzokaralar va kelishuvlarni imzolash ishlari olib borilmoqda.